

Content of the Concept of Cooperation between School, Family and Community (Mahalla) and Increasing the Effectiveness of Education and Upbringing

Numonova Dildor Umurzoqovna

PhD (in Pedagogical Sciences), Associate Professor, Department of Pedagogy, Navoi State University (NavSU)

Baxtiyorova Dildora Baxodir qizi

Master's Student in "Theory and History of Pedagogy"

Annotation: The article will reveal the leading role of the school in education, the responsibility of the family in creating an educational environment and the tasks of the neighborhood as a socially supporting institution. It also analyzes ways to improve the effectiveness of education through organizational forms of cooperation, innovative approaches, preventive measures and spiritual and educational work.

Keywords: school–family-neighborhood cooperation, educational process, educational efficiency, educational efficiency, social cooperation.

Maktab, oila va mahalla hamkorligi konsepsiyasi mazmuni, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish

NavDU "Pedagogika" kafedrası f.f.f.d, dots

Numonova Dildor Umurzoqovna,

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" magistranti

Baxtiyorova Dildora Baxodir qizi

Ключевые слова: сотрудничество школа-семья-соседство, учебно-воспитательный процесс, эффективность обучения, результативность воспитания, социальное сотрудничество.

Аннотация: В статье раскрывается ведущая роль школы в образовании, ответственность семьи за создание образовательной среды, а также функции махалли как института социальной поддержки. Также анализируются организационные формы сотрудничества, инновационные подходы, пути повышения эффективности воспитания через профилактические мероприятия и духовно-просветительскую работу.

Kalit so‘zlar: maktab–oila–mahalla hamkorligi, ta’lim-tarbiya jarayoni, ta’lim samaradorligi, tarbiya samaradorligi, ijtimoiy hamkorlik.

Annotatsiya: Maqolada maktabning ta’lim berishdagi yetakchi roli, oilaning tarbiyaviy muhit yaratishdagi mas’uliyati hamda mahallaning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi institut sifatidagi vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, hamkorlikning tashkiliy shakllari, innovatsion yondashuvlar, profilaktik tadbirlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlar orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil etiladi.

Yangi o‘zgarishlar yosh avlodni ta’lim-tarbiyasini samarali va sifatli ma’naviyati yuksak, har tomonlama intellektual salohiyatga ega etib, yurtimizni tinchlik-osoyishtaligini, shuningdek gullab-yashnashiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan yetuk shaxslarni voyaga yetkazishida qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda o‘qitish samaradorligini oshirish uchun, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish va to‘la egallashlariga erishish, amaliy tajribalarini yanada mustahkamlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. O‘quvchilarga jamoviy, individual yondashish, yoshlarni ijobiy taraflama rivojlantirish, yoshlarning qiziqishlari, ehtiyoji va qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan darslarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish, innovatsion-integratsiyalashgan pedagogik usullardan foydalanish, ta’lim-tarbiyani tizimli amalga oshirish har bir pedagogdan doim talab etiladi. Ta’lim tizimimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda, albatta, bunda ko‘zda tutilgan maqsad maktab,

oila avo mahalla faoliyatini insonparvarlik asosida o'quv- tarbiya ishlarini pedagogik tashkil etish shakl va metodlarini ishlab chiqish, konsepsiyalarini asosida izchillikda amalga oshirish asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi davrda ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga qo'llash, ilmiy-texnika taraqqiyoti va zamonaviy muhitda ta'lim-tarbiyada ijokorlikka keng yo'l ochish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda, uning muhim tizimlarini yaratishda chet el tajribalarini o'rganish va joriy etish ayni muddaodir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: "...ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladigan bir necha muhim qarorlar haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman"- degan o'zining 3-jildi uch bo'limdan iborat asarida "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi"¹

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi mamlakatning ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy omil sifatida qaraladi. Haqiqatda kelajagimiz yoshlar qo'lida, maktabda esa ular ta'lim-tarbiya olib, shaxs sifatida shakllanadi va bir so'z bilan aytganda kelajagi uchun asos bo'ladigan oila avo mahalla faoliyatini bilim, tajribalar bilan o'zini boyitadi. Shu o'rinda maktablardagi ta'lim tizimini tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash faqat maktab zimmasidagi vazifa bo'lib qolmayapti. Shu bois maktab, oila va mahalla hamkorligi konsepsiyasi ta'lim-tarbiya jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, oila bolaning ilk tarbiya maskani bo'lib, unda shaxsning xarakteri, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashi shakllanadi. Agar oiladagi tarbiya maktabdagi ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashsa, o'quvchining bilim olishi va ijtimoiylashuvi samaraliroq bo'ladi.

¹ Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi"¹-3-kitob Toshkent –"O'zbekiston"-2019

Ikkinchidan, maktab ilmiy bilim berish bilan birga, tarbiyaviy ishlarni tizimli olib boruvchi asosiy muassasadir. Oila va mahalla bilan uzviy hamkorlik qilgan maktab o'quvchilarning xulq-atvori, darsga munosabati va intizomini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

Uchinchidan, mahalla milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi muhim institut sifatida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, salbiy ta'sirlardan himoyalashda katta rol o'ynaydi.

Shu sababli maktab, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash:

- ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarda mas'uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi;
- huquqbuzarlik va tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashni samarali tashkil etishga xizmat qiladi;
- yoshlar tajribasida muvaffaqiyatli marralarga ega bo'lishini ta'minlovchi ustuvor mexanizmlardan yani biri sifatida ijodkorligini oshirish, muvaffaqiyatlarga ishontirish, ilhomlanish motivatsiyasini boyitish shart;
- yoshlarni yuksak darajada bilimli kadrlar bo'lib yetishiga yanada e'tibor va talab darajasida bo'lishida, ota-onalarni ham yuqori bilim va tajribalarga ega qilishga undaydi.

O'zbekiston rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan kuchli mutaxassislarni yetishtirish va ularni innovatsion-integratsiyaviy jarayonga moslashuvini ta'minlash ham ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Yurtimizga o'zi kasbiy qobiliyati orqali yangiliklar kiritadigan kadrlarni texnikaviy rivojlanishlarda muvofiqligini ta'minlovchiligini oshirish har qachongidanda tezkorligi sezilarli ravishda ko'zga ko'rinmoqda. Yana bir harakatlarimizda ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishtiruvchi yo'llaridan biri esa har qanday kuzatishlarni aqlli qarorlarni qilish, yoshlarni foydasiga imkon qadar to'g'ri qarorlar qilishni talab etish va ijrosida yoshlarga ko'maklashish zaruriy

imkoniyatlar berish kerak. Xalqimizni farzandlarini yuksak darajada bilimli kadrlar bo‘lib yetishiga yanada e‘tibor va talab darajasida bo‘lishida ota-onalarni ham yuqori bilim va tajribalarga ega qilish eng zaruriy holat hisoblanadi. Yoshlar tajribasida muvaffaqiyatli marralarga ega bo‘lishini ta‘minlovchi ustuvor mexanizmlardan yani biri sifatida avvalombor muammolarni kelishida muammolar yechimiga qaratish, insoniyatni bir marta beriladigan umrini eng yaxshi muvaffaqiyatlarini ko‘paytirish imkoniyatlariga ishontira olish zaruriy hisoblanadi. Yoshlarni qiziqishi, ijobiy sifatlarini takomillashuvida rivojlantiruvchi texnika-texnologiyalariga ega bo‘lishida ilhomlanish motivatsiyasini, ijodkorligini oshirishga qaratish o‘ta muhim jarayonlardan biri sifatida doimo e‘tiborda bo‘lishi shart.

Xulosa qilib aytganda, “Maktab, oila va mahalla hamkorligi konsepsiyasi mazmuni, ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish” mavzusi bugungi kunda ta‘lim tizimini rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni sof qalbi beg‘uborlikda abadiy ijobiy-ijodkorlikka erishishida yuksak amaliy natijalarni qo‘lga kiritish, xalq manfaati, davlatimiz ravnaqi nazarda tutilishi ham kuchli mutaxassis sifatida yurtimizni gullab-yashnashiga hissa qo‘shadigan shaxs voyaga yetkazish nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Umumta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya jarayoni doirasida maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik tizimida amalga oshirish jarayonlarida ishlash izchil amalga oshirish yangi bilim va tajribalarni talab etadi. Maktab, oila va mahalla hamkorligi konsepsiyasining mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ushbu hamkorlikning ta‘lim-tarbiya jarayoniga ta‘sirini o‘rganish hamda ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali shakl, usul va mexanizmlarni aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha tekshiruvdan o‘tgan tadqiqiy psixologi-pedagogik mashg‘ulotlardan to‘g‘ri foydali jihatlaridan o‘z joyida muvaffaqiyatli yo‘naltirish va ijobiy samarali natijaga erishtirish lozim. Shuningdek, ta‘limiy-tarbiyaviy ishlar

samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan metodlardan umumta’lim muassasalari, sinf rahbarlari, ota-onalar hamda mahalla faollari faoliyatida amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev — “Pedagogika” - o‘quv qo‘llanma Toshkent-2022-yil
2. J.Yo‘ldoshev “Yangi pedagogik texnologiya:yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari 1999-yil, M.Ochilov
3. “Yangi pedagogik texnologiyalar” 2000-yil
4. M.Sayidaxmedov “Yangi pedagogik texnologiyalar” 2002-yil
5. M.Sayidaxmedov “Ta’limda harakatlantiruvchi kuch”
6. Беспалко педагогика и прогрессивные технологии обучение” 1989.
7. Usmonboyeva M.,Mahmudova A. Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligining shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasi. Metodik qo‘llanma-Toshkent 2010 yil
8. Respublikamiz Vazirliklari, ta’lim instituti tomonidan nashr etilgan „Oila, mahalla, maktab hamkorligi“ konsepsiyasi hujjatlari.
9. YUNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan school-family-community partnership research reports.